



**“Falsafa” atamisining kelib chiqishi. Falsafaning bahs mavzulari va muammolari.
Falsafaning jamiyatdagi o`rni va vazifalari.**

Jabborova Sayyora

Usmonova Shohsanam

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti o`qituvchilari

Rustamova Mushtariy

Xatamova Adolatxon

Aniq fanlar fakulteti. Fizika va astronomiya

yo`nalishi I-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola falsafa qanday yaralganligi, falsafiy qarashlarga turfa xilligi va olimlarning o`zgacha yondashuvlari asosida mujassamlantirilgan.

**Kalit so`zlar:** Falsafa, falsafaning umuminsoniyligi, falsafiy fanlar, dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafaning yo`nalishlari.

Hamma asrlarda bo`lganidek XX-XXI asrlarda ham falsafa fani rivojlana boshlagan. Barcha olimlar “Falsafa nima?” degan savolga o`z zamonasiga hos holda fikr yuritib javob topishgan. Hozirgi zamon faylasuflaridan biri X. F. Moru “Falsafa deganda nimani tushunishni aniqlash hamma zamonlarda ham qiyin edi, lekin XX asrga kelib u yana ham



qiyinlashdi va hozir ham deyarli aniqlab bo'lmaydigandek tuyulmoqda", degan. Bir necha asrlar davomida falsafa so'zining ma'nosi turlicha qarashlar uning inson hayotida va jamiyat va fanlar tizimidagi o'rniga qarab har xil yondashuvlar bo'lgan. Asta sekin yillar o'tishi bilan "Falsafa" atamasining mohiyati va mazmuni ham o'zgarib borgan. Falsafa so'zini birinchi marta qo'llab ishlatgan olim Pifagor hisoblanadi. Bu borada yunon mutaffakirlaridan biri shunday deydi: Arastu falsafani "Barcha mavjudotning boshlanishi va sabalari haqidagi fan", degan bo'lsa, o'zimizning buyuk allomamiz Abu Nasr Forobiy ham bu atama "Hikmatni qadrlash" deb talqin qilgan. yaxlit tizimini ifodalovchi ma'naviy faoliyatining bir shakli. Milodiy 2—3-asrlarda o'tgan yunon faylasufi Diogen Laertskiyning shohidlik berishicha, yunon mutafakkiri Pifagor birinchi bo'lib o'zini „filosof“ deb atagan. Bu so'z Geraklitning falsafiy ta'limotida narsalarning tabiatini tadqiq etishga nisbatan qo'llanilgan, tadqiqotchining o'zi esa „filosof“ deb atalgan.

Falsafa ([yunoncha](#) φιλοσοφία — „donishlikni sevish“, [yunoncha](#) φιλέω — „sevaman“ va [yunoncha](#) σοφία — „donolik“) — eng umumiy [fan](#) ([nazariya](#)), [dunyoqarash](#) shakllaridan biri bo'lib inson [faoliyati](#) sohalaridan biri. U kishi qanday yashashi, hayot kechirishi kerak ([etika](#)); qaysi narsalar mavjud va ularning tabiati qanday ([metafizika](#)); bilim nima ([epistemologiya](#)); hamda qanday fikrlash to'g'ri ([mantiq](#)) ekanligini hal qilishga urinadi.

Ilk falsafiy ta'limotlar qadimgi Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo'lgan, keyin G'arb mamlakatlariga yoyilgan. Qadimgi Hindistondagi falsafiy maktablar 2 turga bo'linib, biri vedalaraxm kelib chiqqan va ularga suyanuvchi maktablar (vedanta, yoga, vaysheshika, nyaya, sankhya), ikkinchisi vedalarni rad etuvchi maktablar (jayнизм, buddizm, lokoyata) x, isoblanadi. Qadimgi Xitoydagi dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi 7-asrda vujudga kelgan. U qadimgi Xitoy yozma manbalarida uchrab, bu manbalarga „Qo'shiqlar kitobi“, „Bahor va kuz“ kabi qad. yodgorliklar va Konfutsiynnnng „Aforizm“ larini, daosizmni kiritish mumkin.



Markaziy Osiyodagi falsafiy qarashlar qad. turkiy yozuvlar, tangriga e'tiqod qilish tamoyillarida va zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestodya o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Sharq xalqlarining tabiatning asosiy unsurlari yer, suv, havo va olovni e'zozlash haqidagi qarashlari va g'oyalari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng yoyilib Qad. Misr, Bobil, Lidiya mamlakatlari xalqlarining tafakkur tarziga singib ketgan. Yunonistonning ilk falsafiy maktabi — Milet maktabi ham o'z g'oyalarini Sharqdan olganligi tadqiqotchilarga ma'lum. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Marv, Balx, Termiz, Sig'noq, Samarqand, Buxoro zaminini o'ziga qamrab olgan hududda kushonlar saltanati qaror topib, unda budda dini xukm suradi, uning falsafasi bu joyda yashovchi xalqning tafakkur tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ammo Avesto g'oyalari xalq ongidan butunlay chiqib ketmaydi. Milodiy III-asrga kelib tenglik g'oyalarini ilgari suruvchi moniylik ta'limoti paydo bo'ldi. Bu ta'limot mazdakiylar harakatini ma'naviy tayanchi bo'lgan.

Haqiqiy falsafa tafakkur mahsuli bo'lgan narsalarni oliy darajadagi haqiqat sifatida mutlaqlashtirmaydi. Bu borada Suqrotning «men hech narsani bilmasligimni bilaman» degan e'tirofi haqiqat mezonidir. Holbuki, Suqrot qadimgi Yunonistonning eng bilimli faylasufi bo'lgan. U bilimdon, bahs-munozara chog'ida har qanday suhbatdoshni ham mot qilib qo'ya olgani haqida tarixda misollar ko'p. Falsafiy bilimlar rivoji uzluksiz jarayon bo'lib, u insoniyatning tafakkur bobida ilgari erishgan yutug'larni tanqidiy baholashni taqozo etadi. Biroq bu - ularni tamoman rad etish, ko'r-ko'rona tanqid qilish lozim degani emas, balki ularga xos barcha xato va kamchiliklarni anglab, yaxshi va ijobiy jihatlaridan foydalanish demakdir. Ana shunday tanqidiy yondashuv va vorislik falsafaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Bu fanning oldiga qo'yilgan vazifalarga va uning hayotdagi o'rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo'lgan munosabat ham o'zgarib borgan. Bu munosabatlar dastlabki fanlar paydo bo'lib va ularning ba'zilar [falsafadan ajralib](#), alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllana boshlagan.



Falsafa va uning asosiy yo`nalishlari:

1. **Ontologiya** (yun. ontos — borliq va ... logiya) — falsafa bo‘limi, borliq haqidagi ta’limot. Borliqning umumiy asoslari, prinsiplari, uning shakllari va qonuniyatlarini tekshiradi

2. **Gnoseologiya** ([qadimgi yunoncha](#): ἐπιστήμη — „bilish“ va λόγος — „ta’limot“) — [bilish](#) haqidagi ta’limot.

3. **Antropologiya** — (antropo va... logika) — odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqalarining paydo bo‘lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq-tafovut, o‘zgaruvchanlik haqidagi fan. Antropologiya ijtimoiy fanlarga juda yaqin turadigan biologiya sohasidir. Antropologiyaga doir fikrlar bundan bir necha ming yil ilgari paydo bo‘lganiga qaramay, u fan sifatida faqat 19-asrning 2-yarmidan shakllana boshladi

4. **Aksiologiya** (boshqa yunoncha ἀρία „qiymat“ + lotincha „so‘z, ta’limot“ dan) – qadriyatlar nazariyasi, falsafaning bo‘limi.

5. **Estetika** ([qadimgi yunoncha](#): αἴσθησις; [nemischa](#): Ästhetik - "his", "tuyg‘u") [olamning hissiy](#) qabul qilinishini tadqiq etuvchi [fandir](#).

6. **Etika** ([qadimgi yunoncha](#): ἠθική [φιλοσοφία] – „axloq falsafasi“, ἦθος (ētos) – „odat“) shaxs yoki jamiyat odatlarini, [axloq](#) normalarini o‘rganuvchi hamda belgilovchi [falsafiy](#) tadqiqotdir.

7. **Mantiq** [dalil](#) keltirish va [xulosa](#) chiqarish prinsiplarini o‘rganuvchi [falsafiy](#) tadqiqotdir. Mantiq — to‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Falsafa-o`quv qo`llanmasi-Toshkent: 2019 Axloq falsafasi Toshkent: Vneshinvestprom, 2023. <https://ziyonet.uz/ru>
2. Buyuk ilmiy inqiloblar tarixi. O`quv qo`llanma. 2012 -yil.